

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

OMONOVA MUXLISA DO‘STNAZAR QIZI

**INDIVIDUAL TA’LIM TAMOYILLARI ASOSIDA TALABALARNING
TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Omonova Muxlisa Do'stnazar qizi

Individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini
rivojlantirish texnologiyalari..... 3

Омонова Мухлиса Дустназар кизи

Технологии развития критического мышления студентов на основе
принципов индивидуального обучения 21

Omonova Muxlisa Dustnazar kizi

Technology for developing students' critical thinking based on the principles
of individual learning 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Spisok o'publikovannyyx rabot
List of published works..... 47

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

OMONOVA MUXLISA DO‘STNAZAR QIZI

**INDIVIDUAL TA’LIM TAMOYILLARI ASOSIDA TALABALARNING
TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4841 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.chdpu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Botirova Shaxlo Isamiddinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Nurmanov Abdinazar Tashbayevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "19" 12 kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: chdpu-kengash@umail.uz).


Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (321 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "09" 12 kuni tarqatildi.

(2023 yil "09" 12 dagi 149 raqamli reyestr bayonnomasi).


U.N. Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., dotsent


F.T. Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, g.t.f.d. (PhD), dotsent


V.B. Fayziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., prof



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo hamjamiyatining globallashuv sari tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi davrida oliy ta'lim muassasalarida individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'limning rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda zamonaviy mutaxassislar tayyorlash borasida YuNESKO, Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi (AQSh), Uzluksiz ta'lim instituti (Rossiya), Uzluksiz ta'lim nazariyasi markazi (Rossiya), European University Institute, Max Plank Institute kabi ilmiy markazlarda olib borilayotgan tadqiqotlar ham individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish muammosining o'ta dolzarbligidan dalolat beradi.

Xalqaro pedagogik tajribaga ko'ra, oliy ta'lim bitiruvchisi mehnat bozorida raqobatbardoshlik, o'zgaruvchan hayot va mehnat muhitiga moslashuvchanlik, murakkab kasbiy vaziyatlarda adekvat qarorlar qabul qila bilish, innovatsion kasbiy salohiyat elementlarini qaror toptirish kabi talablarga javob berishi talab etilmoqda. Demak, talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mexanizmlarini, pedagogik shart-sharoitlari va didaktik ta'minoti, texnologik asoslari hamda baholash vositalarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish"¹ ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Oliy ta'lim muassasalarida ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun o'qitishning shunday bir pedagogik texnologiyasini yaratish lozimki, unda ta'limning mazmuni, maqsadi, vazifalari hamda ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishning kognitiv, intellektual, kreativ va hissiy-qadriyatli komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlash, B.Blum taksonomiyasi (bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash) asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga

¹"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

oshirishda mazkur ilmiy-tadqiqot ishi bevosita xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tuzishini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan R.X.Djurayev, Sh.S.Sharipov, Sh.E.Qurbonov, U.Inoyatov, Q.T.Olimov, N.A.Muslimov, A.T.Nurmanov, U.M.Xodjamqulov, Sh.I.Botirovalar oliy ta’lim tizimida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning ayrim jihatlarini tadqiq etgan.

Individual ta’lim berish orqali talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish E.A.Baller, B.S.Gershunskiy, A.V.Batarshaev, Yu.A.Kustov, S.M.Godnik va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. MDH olimlaridan O.V.Kupsov, B.S.Gershunskiy, E.A.Baller, A.A.Kiverlyag, Yu.A.Kustov, Sh.I.Ganelin, A.V.Batarshev, T.A.Ilina, V.Ya.Vivyurskiy, G.I.Jelezovskaya, A.G.Moroz, A.M.Lushnikov, S.M.Godnik, B.G.Ananov, K.I.Neshkov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari ham talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotlar tajribasida individual ta’limning konseptual xususiyatlarini ishlab chiqish bo‘yicha R. Dave, J.Mincer, T.W Schultz, Hutmacher Walo, Cooke. P, Sölvell Ö. va boshqalar tadqiqot ishlari olib borganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining davlat dasturlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari” mavzusidagi strategik ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2018-2022).

Tadqiqot maqsadi oliy ta’lim muassasalarida individual ta’lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta’limda individual ta’lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

individual ta’lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning didaktik ta’minotini takomillashtirish, tashkiliy-funksional modelini ishlab chiqish;

individual ta’lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalarida talabalarida tanqidiy fikrlashning rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlarini takomillashtirish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti. Individual ta’lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. Oliy ta’lim muassasalarida individual ta’lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning mazmuni,

shakl, metod va vositalari, innovatsion texnologiyalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayoni uzviyligini ta'minlashga doir ilmiy manbalarni tahlil etish, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni tanqidiy va qiyosiy o'rganish, pedagogik kuzatuv, suhbat, test, anketa so'rovnomalari, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning boshqaruv, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari uslubiy-didaktik ta'minotni mazmunan rivojlantirish hamda o'quv-bilish kompetensiyalarini izchil shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy-funksional modeli maqsadga oid, mazmun, texnologik, tashxislash, natijaviy komponentlari hamda metodologik yondashuvlar va umumdidaktik tamoyillar uzviyligiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi yo'llanma (da'vat), ahamiyatni anglash, fikrlash (mulohaza qilish), ta'lim jarayonini differensiallash, individuallashtirish, klasterlash, moslashtirish hamda individual yondashuvga ustuvorlik berishda metodik apparatni tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning reproduktiv, izlanuvchi, ijodiy darajalarini baholashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli, kreativ mezonlari maxsus kurs dasturlarini ishlab chiqish va joriy qilish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogika yo'nalishi talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir nazariy qarashlar va yondashuvlar belgilangan, ularning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilgan hamda ta'lim jarayoniga joriy qilingan;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan "Tanqidiy fikrlash" maxsus kurs dasturi, "Oliy ta'lim tizimida kasbiy bilimlar uzviyligini ta'minlashning metodik asoslari" nomli o'quv-metodik hamda "Ta'lim tizimida xalqaro tajribalar" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan va ta'lim amaliyotga joriy etilgan;

Maxsus pedagogika fani misolida o'quv jarayonining pedagogik shart-sharoitlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish hamda tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning metodik ta'minoti va modeli takomillashtirilgan, amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorijiy va OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiya materiallari, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba sinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa,

taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif qilingan pedagogik texnologiya talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, pedagogikadan o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishda dasturiy ishlanmalar, mobil ilovalar, ilmiy va o'quv bilish metodlaridan samarali foydalanish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarning mazmuni, zamonaviy uslubiy-didaktik, dasturiy ta'minotini yaratish hamda o'qitishning ilg'or ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ta'lim jarayonida qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalarida individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy-metodologik va amaliy takliflar asosida:

oliy ta'lim muassasalarida individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning boshqaruv, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini uslubiy-didaktik ta'minotni mazmunan rivojlantirish hamda o'quv-bilish kompetensiyalarini izchil shakllantirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Inklyuziv va korreksion ta'limda CLIL texnologiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagi 391-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv qo'llanma talabalarning psixologik-pedagogik jihatlarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy-funksional modelini maqsadga oid, mazmun, texnologik, tashxislash, natijaviy komponentlari hamda metodologik yondashuvlar va umumdidaktik tamoyillar uzviyligiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir takliflar OT-F1-049 raqamli "O'quvchilarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Jizzax politexnika institutining 2023 yil 11 noyabrdagi 03-2630-2619-son ma'lumotnomasi). Natijada, model talabalarning individual fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilgan;

individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi yo'llanma (davat), ahamiyatni anglash, fikrlash (mulohaza qilish), ta'lim jarayonini differensiallash, individuallashtirish, klasterlash, moslashtirish hamda individual yondashuvga ustuvorlik berishda metodik apparatni tizimlashtirish asosida takomillashtirishga doir takliflar "Pedagogik texnologiya" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 noyabrdagi 491-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, darslik talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalarida individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning

tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning reproduktiv, izlanuvchi, ijodiy darajalarini baholashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli, kreativ mezonlari maxsus kurs dasturlarini ishlab chiqish va joriy qilish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Педагогические программные средства” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2023 yil 17 iyuldagi 314-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quv qo‘llanma individual ta’lim tamoyillari asosida talabalarning ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan. Intellektual mulk agentligi tomonidan (№ DGU 29037) 1 ta hammualliflik guvohnoma olinib, amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 maqola, shundan 5 ta respublika 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 130 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida bilish faoliyati tarkibida tanqidiy fikrlash tizimini tashkil etuvchi xususiyatlar, individual ta’limda talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning mazmuni va metodlari, talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda axborot va ta’lim texnologiyalarining pedagogik vazifalari keltirib o‘tilgan.

Tanqidiy fikrlash qobiliyati ta’limni axborotlashtirish sharoitida olingan o‘quv va ilmiy ma’lumotlarni malakali tahlil qila oladigan, o‘rganilayotgan faktlar, normalarning muvofiqligini aniqlash asosida o‘z mulohazalarini shakllantirishi va qadriyatlar, o‘zi va atrofdagi voqelikka tanqidiy munosabatni rivojlantirishi kerak bo‘lgan talabalar uchun alohida ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish haqida professor-o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi talabalarning olingan ma’lumotlardan asosiysini ajratib olish, undagi qarama-qarshi fikrlarni aniqlash, asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘zaro munosabatlarning maxsus tashkil etilgan jarayondir.

Oliy ta’lim muassasasida ta’lim, birinchi navbatda, talabalarning bilish faoliyatini boshqarish jarayonidir. Bilish faoliyati tarkibida tanqidiy fikrlashning

o‘rnini aniqlash uchun xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning konsepsiyalarida shakllantirilgan ushbu turdagi fikrlashning asosiy xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan tanqidiy fikrlashning asosiy xususiyatlari talabalarning o‘quv-bilish kompetensiyalarining tizimli komponentlari bo‘lib, ular tashkil etish, maqsad qo‘yish, rejalashtirish, tahlil qilish, fikrlash, o‘z-o‘ziga baho berish usullarini o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning yuqori darajasi oliy ta’limdagi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini izchil rivojlantirishni ta’minlash imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashning turli xil ta’riflari mavjud: tanqidiy fikrlash - bu olingan natijalarni standart va nostandart vaziyatlar, savollar, muammolarga qo‘llash uchun mantiq va shaxsiy-psixologik yondashuv nuqtai nazaridan ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyatidir (J.L.Stil); tanqidiy fikrlash - tahlil qiluvchi, baholovchi, muammo yaratuvchi fikrlashdir (I.I.Ilyasov); tanqidiy fikrlash shaxsning ijtimoiy va individual hayotida “ishtirok etish”ga qaratiladi (G.S.Suxobskaya). Bu ta’riflar umumiylikka ega: *tanqidiy fikrlash - baholovchi, refleksiv fikrlashdir.*

Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi birinchi navbatda talabani qiziqtirishga (unda tadqiqotchilik, ijodiy faollikni uyg‘otish), so‘ngra unga materialni tushunish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash, keyin olingan bilimlarni umumlashtirish va amaliyotda qo‘llashda yordam berishga qaratilgan strategiya va metodlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotimizda biz talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ta’lim mazmunining tuzilishini hisobga olish va fikrlashning tabiati va turlari, xususiyatlari, o‘xshashlik va farqlari, tanqidiy fikrlashning mazmunli komponentida ijodiy fikrlash haqidagi bilimlarni o‘z ichiga olishi kerakligidan kelib chiqdik. Bundan tashqari, talabalar tanqidiy fikrlash, tanqid va o‘z-o‘zini tanqid qilish kabi tushunchalar haqida tushunchaga ega bo‘lishlari kerak.

Pedagogik tizimda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning darsning maqsadi, mazmuni va tuzilishini aniqlashda ishtirok etishini ta’minlaydi, chunki ular kompyuter yordamida turli xil va keng qamrovli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi strukturasi uchta bosqichini o‘z ichiga oldi: chaqiruv, mazmuni anglash va refleksiya (1-jadval).

1-jadval

Tanqidiy fikrlashning rivojlanish bosqichlari

<i>Texnologik bosqichlar</i>		
I bosqich	II bosqich	III bosqich
Chaqiruv (motivatsiya)	Mazmuni anglash:	Refleksiya
- mavjud bilimlarni dolzarblashtirish;	- yangi ma’lumot olish;	- fikrlash, yangi bilimlarni paydo bo‘lishi;
- yangi ma’lumot olishga qiziqish	- talabalarni o‘z ta’lim maqsadlarini tuzatishi;	- talabalarning yangi ta’lim maqsadlarini qo‘yishi;

uyg'otish;		
- talabalarni o'z ta'lim maqsadlarini qo'yishi;	- talabalar mulohaza yuritadilar;	- fikrlash, yangi bilimlar asosida xulosa chiqaradilar;

Tanqidiy fikrlash sharoitida talabalarning bilish faoliyati yo'llarini: tahlil, sintez, abstraksiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, mulohaza yuritish, xulosa chiqarish, induksiya, deduksiya kiradi. Talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini qiziquvchanlik, yaxshi bilim, keng fikrlilik, moslashuvchanlik, baholashda adolatlilik, noto'g'ri qarashlarga qarshi shaxsiy halollik bilan bog'lash muhimdir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida tavsiflangan bosqichlardan tashqari o'quv jarayoni mantig'iga va bilimlarni o'zlashtirish tuzilishiga muvofiq, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash bosqichi muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz. Bilimlarni qo'llash bosqichida talabalar mavhum ma'lumotlardan muayyan shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni hal qilish, darsdan tashqari vaziyatlarda o'quv-bilish kompetensiyalarni shakllantirish uchun foydalanish imkoniyatiga ega. Bilimlarni qo'llash turli faoliyat shakllari va turlarida amalga oshirilishi mumkin: muammoli va ijodiy vazifalarda, loyiha doirasida, o'quv - tadqiqot referatini tayyorlash jarayonida va boshqalar.

Talabalarga tanqidiy fikrlashni o'rgatish samaradorligi ko'p jihatdan professor-o'qituvchining kasbiy mahorat darajasi bilan belgilanadi. Talabalar faoliyatining mahsuldorligi, shuningdek, o'quv jarayonining samaradorligi o'qituvchining talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishi, olingan bilimlarni idrok etish, yodlash, tushunish, o'zlashtirish va amaliyotda qo'llashni ta'minlashga qanday o'rgatishiga bog'liqdir. Shunday qilib, tanqidiy fikrlash o'quv jarayonining turli bosqichlarida talabalarning o'quv - bilish kompetentligining zaruriy komponentidir.

Pedagogik, psixologik, falsafiy, ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari tahlillari natijasida tadqiqot mavzusi bo'yicha muammolar aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va uslubiy ta'minoti, individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi keltirib o'tilgan.

Biz asosiy tushunchalarni – yondashuv, tizim, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar hamda uzviylikni yuzaga chiqarish shart-sharoitlari kabilarni o'rganib chiqdik. Olib borgan tadqiqotimiz natijasida, tizim – bu bir-biri bilan aniq munosabatlarda bo'luvchi, eng kichik elementlardan tashkil etuvchi ma'lum bir yaxlitlik, ya'ni elementlar yig'indisidir degan xulosaga keldik. Yondashuv – bu biron narsani o'rganishdagi usullar va uslublar jamlanmasi bo'lib, bunda yondashuv – tizim, jarayon, yo'nalish, hodisaning rivojlanishini boshqarishdir. *Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar* – ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning o'qitish, tarbiyalash va rivojlanishni amalga oshirishlariga taalluqli bo'lgan usullar, vositalar va qoidalardir.

Individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari o'z ichiga uchta–*boshqaruv, psixologik-pedagogik va ilmiy-metodik* bloklarni oldi: *boshqaruv bloki* me'yoriy-huquqiy, moliyaviy, moddiy-texnik, kadrlar shart-sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarish va ta'lim berish jarayonlari yaxlitligini ta'minlash orqali uzluksiz ta'limning jadallashtiruvini ta'minlaydi; *psixologik-pedagogik blok* o'qitish va tarbiyalashga shaxsga yo'naltirilgan va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlarni, ta'lim jarayonining insonparvarlashuvi, individuallashtirilishi, differensiallashtirilishi, ijtimoiylashuvi, madaniylashuvning pedagogik tamoyillarini amalga oshirilishini, ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasidagi qulay shaxslararo ob'yektli-sub'yektli munosabatlarning va ijobiy barqaror psixologik muhitning yaratilishini ta'minlaydi; *ilmiy-metodik blok* ta'lim jarayonini o'quv dasturlari, ularning metodik ta'minlanishi, o'qitishning didaktik vositalari, metodikalari va texnologiyalari, o'quv-bilish va o'quv-ishlab chiqarish faoliyatining natijalarini nazorat qilish tizimi bilan ta'minlanadi.

Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarning yaxlit komponentli (*ijtimoiy-iqtisodiy, axborotli, moddiy-texnik, professiologik*) tarkibi o'zaro aloqador va o'zaro bog'langan bo'ladi, ta'lim jarayonining ishtirokchilari orasidagi maqbul holdagi shaxslararo ob'yektli-sub'yektli munosabatlar sharoitlarida yetakchi pedagogik tamoyillar asosida o'qitishga va tarbiyalashga *shaxsiy-yo'naltirilgan* hamda *shaxsiy-faoliyatli* yondashuvlarni ta'minlaydi.


Oliy ta'lim muassasasining ta'lim tizimi quyidagi tamoyillarni hisobga olishi va maqsadli ravishda foydalanishi zarurdir: *individual o'qitish tamoyili; ongli istiqbol tamoyili; ta'lim tizimining ochiqligi tamoyili; ta'lim tizimining moslashuvchanligi tamoyili; ta'lim tizimining dinamikligi tamoyili*. Ularning sinergiyasi talabalar shaxsining *kognitiv, me'yoriy-etikaviy, axborot-kommunikativ, jamoaviy-faoliyatli, refleksiv-baholashli* sohalarining rivojlantirilishiga qaratiladi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida "Tanqidiy fikrlash" maxsus kurs dasturi, "Oliy ta'lim tizimida kasbiy bilimlar uzviyligini ta'minlashning metodik asoslari" nomli o'quv-metodik hamda "Ta'lim tizimida xalqaro tajribalar" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi.

"Pedagogika" yo'nalishida "Maxsus pedagogika" o'quv fani misolida o'quv jarayonining pedagogik shart-sharoitlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish orqali tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning metodik ta'minoti takomillashtirildi.

Umuman olganda talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan so'ngina amalga oshirish mumkin deb hisoblaymiz.

Tizimli, kompetentli, shaxsga yo'naltirilgan, aksiologik va faoliyatli yondashuvlar hamda Individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modelni ishlab chiqilgan bo'lib, uni ta'lim doirasidagi tizim sifatida ko'rib chiqish mumkin.



1-rasm. Individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modeli

Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlanish bosqichlari quyidagilardan iborat: motivasiyali (talabalarni kasbiy muammolarga kirishi); faol faoliyatli (kasbiy bilimlarni mustahkamlash, ko'nikmalarni shakllantirish); reflektiv (kasbiy bilimlarga qadriyatli munosabat va tanqidiy fikrlashni baholash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish).

Modelning integrativligi uning barcha komponentlarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirida, kasbiy kompetensiyani shakllantirishning maqsadlari, mazmuni, tashkiliy shakllari va usullarini birlashtirishda namoyon bo'ladi. Tanlangan yondashuvlar va tamoyillarga muvofiq, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli asosida biz *maqsadli, mazmunli, jarayonli va baholovchi komponentlarni o'z ichiga olgan modelini tushunamiz* (1-rasm).

Ta'limda individual yondashuvdan to'liq foydalanishda o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish yo'llari yoki ko'nikmalarni shakllantirish usullari bir-biridan farq qilmaydi, qoida tariqasida, bu holda, ular biror individual yo'nalishga ega, ular barcha talabalar uchun bir xil bo'lib qoladi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasasida "Pedagogika" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini tanqidiy fikrlashini rivojlantirish kasbga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunday ta'lim maqsad asosida ta'lim natijasiga erishish uchun tashkil etiladi. Buning uchun pedagogik mashg'ulotlar maxsus tashkil etilishi kerak.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Pedagogika" bo'lajak o'qituvchilariga ta'lim berish asosan tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan zaruriy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishishga pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarida kelajakdagi pedagogik faoliyatida yuzaga keladigan kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatini hamda tanqidiy tafakkurini rivojlantirish yordam beradi.

Pedagogika fanini o'qitishda kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyati va tashabbuskorligi qisman shakllanadi. Pedagogika fani, avvalo, talabalarga umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni o'rganish uchun zarur bo'lgan bilimlarni singdiradi, ularning asosiy maqsadi tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdir.

Dars jarayonida talabaning tanqidiy (tahliliy) fikrining shakllantirishning uch bosqich ta'minlaydi: 1.Yo'llanma (da'vat)- bu darsning shunday bosqichiki, bunda talabalar mavzu bo'yicha belgilar haqida o'ylashga mavzuga doir savollarni berishga va o'rganish uchun vazifalar qo'yishga yo'naltiradi; 2.Ahamiyatni anglash - bu darsning shunday bosqichiki, bunda talabalar bilimlarni izlaydilar va o'rganadilar shu bilan birga o'z faoliyati natijasida ahamiyatini anglaydilar; 3. Fikrlash (mulohaza qilish)- darsning shunday bosqichiki, bunda talabalar o'zlari to'qnashgan fikrlarga va anglab yetgan ma'nolarga qaytadilar, shu bilan savollar beradilar. Talqin etadilar, munozara qiladilar.

Mantiqiy fikrlashning ikki turini ajratish mumkin: induksiya va deduksiya. Deduksiya — rasmiy shakllantirish qoidalaridan foydalangan holda, argumentning asosiy tuzilishidan xulosa chiqarishdir. Masalan: X — shaxs (preza), u holda hamma odamlarning yuzi (preza) bor, shuning uchun X ham yuzga ega (mantiqiy xulosa).

Tanqidiy fikrlash jarayonida axborotni tahlil qilish va izohlash, g'oyalarini tahlil qilish, o'rganilayotgan hikoyalarni o'z taxminiy rejalari bilan qayta tuzib chiqishga qaratilgan savollardan foydalaniladi. Tahlil qilinayotgan bu masalalar Senders

ifodalari va Blum tizimli savollaridan olindi. Bu savollar turli sathdagi qiyinchilikda fikrlashning turli ko‘rinishlarini ta‘minalashda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Eslab qolishga xizmat qiladigan savollar yoki formal sathdagi savollar eng quyi sathdagi savollarga taalluqlidir. Baholash yoki hukm chiqarish beriladigan savollar fikrlashni ta‘minlaydigan ikkinchi sathdagi savollar sifatida qaraladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan vaesdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo‘l ham yo‘q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o‘quv sharoitlari to‘plami mavjud. Uning uchun: *talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish; turli-tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish; talabalarning o‘kuv jarayonidagi faolligini ta‘minlash; talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak; har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o‘zlarida ishonch hissini uyg‘otish; tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.* Shu munosabat bilan talabalar: *o‘ziga ishonchni orttirish va o‘z fikri hamda g‘oyalarining qadrini tushunish; o‘quv jarayonida faol ishtirok etish; turlicha fikrlarni e‘tibor bilan tinglash; o‘z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.*

Individual ta‘lim tamoyillarini tashkil etish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, talabaning o‘zi tomonidan va guruh, o‘qituvchi bilan o‘zaro munosabatlarda amalga oshiriladi va bu jarayonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ta‘lim muassasasining ta‘lim maydonini tashkil etishga bog‘liq. Shuning uchun ta‘lim jarayonida individual, guruhli va jamoaviy ish shakllarini uyg‘unlashtirish kerak.

Talabalarning tanqidiy fikrlashini individual ta‘lim tamoyillarini tashkil etish asosida rivojlantirishda quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanildi: differensial ta‘lim texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi, muammoli ta‘lim texnologiyasi, evristik texnologiya.

Dissertatsiyaning “**Tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida Redagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish, O‘tkazilgan redagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining tahliliy natijalari keltirilgan.

Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari asoslovchi, aniqlovchi va yakuniy bosqichlarda amalga oshirildi. Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy asoslari o‘rganildi; tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi; tadqiqot ob‘yekti va uning ko‘rsatkichlari hamda unga mos mezonlar nazariy manbalardan tahlil qilinib o‘rganildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Urganch davlat universiteti va Qo‘qon davlat pedagogika universitetida 2020-2023 yillarda bo‘lib o‘tdi. Tajriba-sinov ishlari “Pedagogika” bakalavriyat ta‘lim talabalariga o‘tkazildi. Shu bilan birga ushbu yo‘nalishda ta‘lim berayotgan o‘qituvchilar ham tajriba-sinov ishlarida qatnashdi.

Tajriba-sinov tuzilishi jihatidan ikkita nisbiy mustaqil bosqichlardan tashkil topadi. Tajriba-tajriba ishining barcha bosqichlari OTM talabalarini peadagogika mutaxassisligi bo‘yicha tanqidiy fikrlashini rivojlantirish amalga oshirishni nazarda tutadi.

Eng asosiysi, har qanday tayyorgarlik talabalarning ish faoliyatini yaxshilashga olib kelishi kerak va bunda bajarilgan ish hajmi hamda ishning muvaffaqiyati ma‘lum

darajada o'lanishi mumkin.

Ilmiy faktologik nuqtai-nazardan bosqichlari va tarkibiga ko'ra tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning texnologik tavsifi mazmunini quyidagi jadvalda keltiramiz (2-jadval):

2-jadval

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning texnologik tavsifi

№	Tajriba-sinov ishining bosqichlari	tajriba-sinov ishi har bir bosqichi tarkibi mazmunining ilmiy-faktologik talqini
1	Tashkillashtirish	tajriba natijalarni ilmiy jihatdan asoslash, gipotezalarini ishlab chiqish, nazariyasini ishlab chiqish, haqqoniyligini asoslash
2	Amalga oshirish	tajriba materiallarini tayyorlash, haqqoniyligini va ishonchliligini ta'minlash
3	Bayon qilish	Tajriba-sinovida olingan natijalarning miqdoriy va sifat xususiyatlarini aniqlash, matematik-statistik hisob-kitoblarni amalga oshirish va tajriba gepotezasini to'g'ri ekanligini isbotlash
4	Talqin qilish	tajriba sinovida olingan natijalarni ob'yektiv jihatdan tanqidiy tahlil qilish, tajriba natijalarini mohiyatini anglash


Tanqidiy fikrlashni rivojlanganligini baholash mezonlari: *motivation* – tanqidiy fikrlashda aniq maqsadlarni belgilay olish, o'z mutiaxassisligi bo'yicha qiziqishning mavjudligi; *kognitiv-faoliyatli* – tanqidiy fikrlashda bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi; *faoliyatli-refleksiv* – o'z-o'zini baholay olishi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish qobiliyati.

Talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirishni baholash tanqidiy fikrlashni rivojlanganlik darajasi (yuqori, o'rta, past) orqali baholandi: *yuqori* – tanqidiy fikrlay oladi. Tadqiqodchilik, ijodkorlik va ishlab chiqarish kasbiy ko'nikmalariga ega; *o'rta* – tanqidiy fikrlashda o'ziga ishonadi, tanqidiy fikrlash orqali mustaqil ishlarni qisman bajara oladi; *past* – peadgogika sohasidagi nazariy bilimlarga ega, tanqidiy fikrlay olmaydi, lekin kasbiy masalalarni yechishda qiyinchilikka duch kelishi.

3-jadval

CHDPU, UrDU, Qo'qonDPUda olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari

Tanqidiy fikrlashni rivojlanganlik darajalari	Tajriba guruhlarida		Nazorat guruhlarida	
	Tajriba boshida 255 nafar talaba (%)	Tajriba oxirida 257 nafar talaba (%)	Tajriba boshida 261 nafar talaba (%)	Tajriba oxirida 262 nafar talaba (%)
Yuqori	8,3	16,7	4,1	5,4
O'rta	62,5	81,9	70,3	71,6
Past	29,2	1,4	25,6	23



3-rasm. CHDPU, UrDU va Qo‘qon DUDA olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari diagrammasi

Tajriba guruhida qatnashgan talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlanganlik darajalari tajriba boshida 7,4 %, tajriba oxirida 16,3% yuqori darajani ko‘rsatdi. O‘rta daraja esa 25,2% o‘sdi, past daraja esa 34,1% kamaydi.

Nazorat guruhida qatnashgan talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlanganlik darajalari tajriba boshida 3,8 %, tajriba oxirida 5,3% yuqori darajani ko‘rsatdi. O‘rta daraja esa 7,2% o‘sdi, past daraja esa 8,7% kamaydi.

4-jadval

Miqdoriy mezonlar ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Tajriba-sinov guruhi m=257	Nazorat guruhi n=262
1.	Statistik tahlil	1,13-2,26	1,84-1,9
2.	O‘rtacha kvadratik xatolik	0,31	0,223
3.	Styudent tanlamali mezoni ($T_{x,u}$)	16,4 ($8,625 > 1,84$)	
4.	Ko‘rsatkichlar xulosasi	N_0 gipoteza rad qilinib, N_1 gepoteza qabul qilinadi	

Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlanganlik darajalarining samaradorligi 1,13 (13%) yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko'rsatadi.

Xulosalar

“Individual ta'lim tamoyillari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi” bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Pedagogik, psixologik, falsafiy, ilmiy adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilindi, “Pedagogika” yo'nalishi malaka talablari o'rganildi, o'quv-uslubiy majmua, fanlar bo'yicha ishchi dastur, fan dasturi, Davlat ta'lim standarti, kalendar rejalar tahlil qilindi. Tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Tanqidiy fikrlash sharoitida talabalarning bilish faoliyati yo'llarini: tahlil, sintez, abstraksiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, mulohaza yuritish, xulosa chiqarish, induksiya, deduksiya kiradi. Talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini qiziquvchanlik, yaxshi bilim, keng fikrlilik, moslashuvchanlik, baholashda adolatlilik, noto'g'ri qarashlarga qarshi shaxsiy halollik bilan bog'lash muhimdir;

2. Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi birinchi navbatda talabani qiziqtirishga (unda tadqiqotchilik, ijodiy faollikni uyg'otish), so'ngra unga materialni tushunish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, keyin olingan bilimlarni umumlashtirish va amaliyotda qo'llashda yordam berishga qaratilgan strategiya va metodlar to'plamini o'z ichiga oladi. Tadqiqotimizda biz talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ta'lim mazmunining tuzilishini hisobga olish va fikrlashning tabiati va turlari, xususiyatlari, o'xshashlik va farqlari, tanqidiy fikrlashning mazmunli komponentida ijodiy fikrlash haqidagi bilimlarni o'z ichiga olishi kerakligidan kelib chiqdik.

3. Bo'lajak mutaxassislarini ko'p darajali kasbiy tayyorgarligining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari o'z ichiga uchta–*boshqaruv, psixologik-pedagogik va ilmiy-metodik* bloklarni o'z ichiga oldi. Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarning yaxlit komponentli (*ijtimoiy-iqtisodiy, axborotli, moddiy-texnik, professiologik*) tarkibi o'zaro aloqador va o'zaro bog'langan bo'ladi, ta'lim jarayonining ishtirokchilari orasidagi maqbul holdagi shaxslararo ob'yektli-subb'yektli munosabatlar sharoitlarida yetakchi pedagogik tamoyillar asosida o'qitishga va tarbiyalashga *shaxsiy-yo'naltirilgan* hamda *shaxsiy-faoliyatli* yondashuvlarni ta'minlaydi;

4. Oliy ta'lim muassasasining ta'lim tizimi quyidagi tamoyillarni hisobga olishi va maqsadli ravishda foydalanishi zarurdir: *individual o'qitish tamoyili; ongli istiqbol tamoyili; ta'lim tizimining ochiqligi tamoyili; ta'lim tizimining moslashuvchanligi tamoyili; ta'lim tizimining dinamikligi tamoyili*, bu individual ta'lim yo'nalishlarini. Ularning sinerjiyasi talabalar shaxsining *kognitiv, me'yoriy-etikaviy, axborot-kommunikativ, jamoaviy-faoliyatli, reflektiv-baholashli* sohalarining rivojlantirilishiga qaratiladi;

5. Tizimli, kompetentli, shaxsga yo'naltirilgan, aksiologik va faoliyatli yondashuvlar hamda individual ta'lim yo'nalishlarini tashkil etish asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan bo'lib, uni ta'lim doirasidagi tizim sifatida ko'rib chiqish mumkin. Modelga ta'rif berish uchun uning umumiy tarkibiy tuzilishini quyidagicha tasavvur qildik: *maqsadli komponent; mazmunli komponent; jarayonli komponent; tashhislash-baholash komponenti; natija komponenti;*

6. Dars jarayonida talabaning tanqidiy (tahliliy) fikrining shakllantirishning uch bosqich ta'minlaydi; *yo'llanma (da'vat); ahamiyatni anglash; fikrlash (mulohaza qilish)*. Bu bosqichda bilimlar mustahkamlanadi va o'rganayotgan masala oldingi bosqichlariga nisbatan to'laroq shakllanadi. Ta'lim jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun differensial o'qitish, muammoli ta'lim, evristik kabi ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanildi.

7. O'tkazilgan tajriba – sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki individual ta'lim yo'nalishlarini tashkil etish asosida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlanganlik darajalari tajribaga qadar olingan natijalarga nisbatan 13% ga oshganligini ko'rsatdi. Olingan natijalar tajriba-sinov ishlarining samarali bo'lganligini tasdiqladi.

Taklif va tavsiyalar

1. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning uslubiy ta'minotini takomillashtirish zarur;

2. Talabalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha metodik ta'minot ishlab chiqish zarur;

3. Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish texnologiyasini takomillashtirish zarur.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ОМОНОВА МУХЛИСА ДУСТНАЗАР КИЗИ

**ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ
СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ ИНДИВИДУАЛЬНОГО
ОБУЧЕНИЯ**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Чирчик – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.2.Phd/Ped4841.

Диссертация выполнена в Чирчикском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета (www.cdpu.uz) и на Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Ботирова Шахло Исамидиновна доктор педагогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Нурманов Абдиназар Ташбаевич доктор педагогических наук, профессор Олимов Ширинбой Шарофович доктор педагогических наук, профессор
Ведущая организация:	Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится « 19 » 12 2023 года в 19⁰⁰ часов на заседании Ученого совета DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 при Чирчикском государственном педагогическом университете (Адрес: 111720 Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амира Темура, 104. Тел: (+998) 70-712-27-55 Факс: (998) 70-712-45-41 e-mail: chdpi-kengash@umail.uz).

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета. (зарегистрирован под номером 321). Адрес: 111720 Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амира Темура, 104. Тел: (+998) 70-712-27-55 Факс: (+998) 70-712-45-41

Автореферат диссертации разослан « 09 » 12 2023 г.

(протокол реестра под номером 149 от " 09 " 12 2023 года).


У.Н. Ходжамкулов
Председатель Ученого совета по присуждению
ученых степеней, д.п.н., доцент

Ф.Т. Раджабов
Член Ученого совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.н. (PhD), доцент

В.Б. Файзиев
Председатель Научного семинара при Ученом совете
по присуждению ученых степеней, д.б.н., проф

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современную эпоху глобализации мирового сообщества особое внимание в высших учебных заведениях уделяется развитию критического мышления студентов на основе принципов индивидуального обучения. Исследования по определению тенденций развития и особенностей высшего образования и подготовке современных специалистов, проводимые в таких научных центрах, как ЮНЕСКО, Ассоциация педагогических коммуникаций и технологий (США), Институт непрерывного образования (Россия), Центр теории непрерывного образования (Россия), European University Institute, Max Plank Institute, также указывают на актуальность проблемы развития критического мышления студентов на основе принципов индивидуального обучения.

Согласно международному педагогическому опыту, от выпускника высшего образования требуется соответствие требованиям конкурентоспособности на рынке труда, адаптивности к изменяющейся среде жизни и труда, способности принимать адекватные решения в сложных профессиональных ситуациях, определения элементов инновационного профессионального потенциала. Поэтому совершенствование механизмов развития критического мышления студентов, педагогических условий и дидактического обеспечения, технологических основ и средств оценивания имеет актуальное научное и практическое значение.

В стратегии развития семи приоритетных направлений развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы в качестве приоритетной задачи определено «Построение дружественного народу государства через поднятие человеческого достоинства и дальнейшее развитие свободного гражданского общества». В высших учебных заведениях для решения этих задач необходимо создать такую педагогическую технологию обучения, в которой обеспечение взаимосвязи между содержанием, целью, задачами и когнитивными, интеллектуальными, креативными и эмоционально-ценностными компонентами формирования у студентов компетенций критического мышления, развитие критического мышления студентов на основе таксономии Б. Блума (знание, понимание, применение, анализ, синтез, оценка) имеют важное значение.

Данная научно-исследовательская работа непосредственно служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан ПУ-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», ПУ-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», постановлениях ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», ПП-3151 от 27 июля 2017 года «О мерах по дальнейшему расширению участия отраслей и сфер экономики в повышении качества подготовки специалистов с высшим образованием», ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших

образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» и в других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Среди ученых нашей страны Джураев Р.Х., Шарипов Ш.С., Курбанов Ш.Э., Иноятов У., Олимов К.Т., Муслимов Н.А., Нурманов А.Т., Ходжамкулов У.М., Ботирова Ш.И. исследовали некоторые аспекты развития компетенций критического мышления студентов в системе высшего образования.

